

HARAKAT QOBILIYATI CHEKLANGAN AYOLLAR REABILITATSIYA KIYIMINING DIZAYN LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH

M.K.Rasulova

t.f.d., prof.

M.Y.Umarova

katta o`qit.

Toshkent to`qimachilik va yengil sanoat institute


<https://doi.org/10.5281/zenodo.20740975>

Annotatsiya. Ushbu maqolada harakat imkoniyati cheklangan ayollar reabilitatsiya kiyimini anketa so`rovnoma natijalari va moda yo`nalishini e`tiborga olib yangi jilet-korset modelini loyihalash masalalari taqdim etildi. "Мьюллер и сын" metodikasi bo`yicha asos konstruksiya chizmasiga o`tirgan holatda qulaylik yaratuvchi o`zgartirish kiritildi.

Аннотация. В данной статье представлены вопросы проектирования новой модели жилета-корсета с учетом результатов анкетирования и направления моды реабилитационной одежды для женщин с ограниченными возможностями передвижения. Согласно методике "Мюллер и син" в чертеж базовой конструкции были внесены изменения, создающие удобство сидя.

Annotation. This article presents the design of a new waistcoat-corset model for women with limited mobility, taking into account the results of a questionnaire survey and fashion trends. According to the "Müller i sin" methodology, changes were made to the drawing of the base structure to create comfort in a sitting position.

Harakat imkoniyati cheklangan ayollar reabilitatsion kiyimini loyihalash uchun taklif etilayotgan usul va texnologiyalarning joriy etilishi iste`molchilarning talablariga javob beradigan va jahon bozorlarida raqobatbardosh bo`ladigan reabilitatsion kiyim uchun yangi loyiha yechimlarini beradi. Bunday hollarda, buyumning funktsionalligi loyihalashtirilgan obyektning asosiga aylanadi, o`ziga xos texnik jihatdan yangi innovatsion yechimlarni ishlab chiqish bo`yicha dizayn jarayoni shakllanishini ta`minlaydi [1]. Ayollar reabilitatsiya kiyimini shakllantirishda olib borilgan anketa so`rovnoma natijalari va moda yo`nalishi e`tiborga olindi (1-rasm).





1-rasm. Ayollar reabilitatsiya kiyimi jilet-korsetning yangi modeli

1-rasmda ayollar reabilitatsiya kiyimi jilet-korset yangi modelining old, orqa va yon tomondan ko`rinishlari keltirilgan. Jilet-korset koketka, old va orqa bo`laklardan iborat. Buyumning yon tomonlarida ort bo`lakning yon qirqimlariga biriktirilgan qo`ymalar mavjud. Old va ort bo`lak o`ng tomon yon qirqimlari cho`ziluvchan elastik tasma bilan biriktirilgan, chap tomon yon qirqimlari bo`ylab lyuvers o`rnatilgan bo`lib, shnur bilan bog`lanadi. Bu buyum kengligi bo`ylab qomat o`lchamiga mos holda o`zgarishni ta`minlaydi. Korset 6 ta izma va 6 ta tugmachalar bilan taqiladi. Bortlari bo`ylab tugmalarni yopadigan va velkro tasma bilan mahkamlanadigan planka bilan ishlov berilgan. Yoqa va yeng o`mizlari asosiy trikotaj polotnodan manjet bilan ishlov berilgan. Old bo`lak o`ta qismi pastki tomoni bemorni o`tirish holatiga moslab shakldor qilib loyihalangan.

Old va orqa qismida plastmassa sterjenlar qo`yish uchun vertikal to`g`ri burchakli cho`ntak-qoplamalar o`rnatilgan. Bu cho`ntaklarga bemorning tayanch-harakat tizimi holatining davolanishdan keyin saqlanishini ta`minlaydigan plastmassa sterjen kiritiladi.

Plastmassa sterjen bemorga kreslo-aravachada o`tirganda qulay sharoit yaratadi va qomatga botmaydi.

Asos konstruktsiya qurish usuli sifatida “Мюллер и сын” konstruksiyalash usulidan foydalanildi. [2]

“Мюллер и сын” konstuksiyalash metodikasi nafaqat yengil sanoatda ommaviy tipaviy kiyimlarni loyihalashda, balki individual kiyim loyihalash uchun ham mo`ljallangan hisoblanib, metodikada aniq fazoviy shaklni hosil qiluvchi o`lchamlar, konstruksiyani qurishni osonlashtiruvchi loyihalash ketma-ketligi, kiyim qomatda kamroq defektlarni hosil qilishini ta`minlovchi ko`plab afzalliklarga ega. [3]


Harakat imkoniyati cheklangan ayollar reabilitatsiya kiyimini loyihalash uchun kiyim qomatda nuqson hosil qilmasligini ta`minlovchi kabi afzalliklarga ega “Мюллер и сын” metodikasi bo`yicha asos konstruksiya chizmasiga quyidagi o`zgartirish kiritildi 2-rasm.

Ort bo'lakda koketka chizig'i belgilandi. Old bo'lakda ko'krak vitochkasi koketka ostiga o'tkazildi, modelga mos holda old yoqa o'mizi shakli hosil qilindi.

Old va ort bo'laklarda modelga mos holda eng o'mizi shakli chizildi. Old bo'lak markaziy taqilmaga planka loyihalandi. Bort taqilmasida tugmalar o'rni belgilandi. Chap yon qismiga qo'yma detal joylashtirildi va ilgaklar o'rni belgilandi. O'ng yon bo'lakga qomat shaklini mustaxkamlash uchun cho'ziluvchan tasma loyihalandi. Old bo'lak pastki qismi qomatdagi qorin shakliga mos holda shakllantirildi. Ort bo'lakda buyum uzunligi beligandi.

Loyihalangan harakat imkoniyati cheklangan ayollar jilet-korset reabilitasiya markazi davolanuvchilari qomatida tekshirildi. Jilet-korset harakat imkoniyati cheklangan ayollarning davolanish jarayonlarini sifatli ta'minlanishida hissa qo'shishi aniqlandi.

Reabilitatsiya jarayonida kiyim insonning harakat faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi [4].



**2-rasm. Harakat imkoniyati cheklangan ayollar reabilitatsiya kiyimi
AK va MK chizmasi**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бикбулатова А.А. Научные основы проектирования лечебно-профилактической и реабилитационной одежды: дис. ... д-ра техн. наук: 05.19.04/МГУС, М., 2022.-119-121с.
2. М.Мюллер и сын. Техника кроя // Сборник «Ателье -2001». –Москва. 2002 г.
3. М.К.Расулова, М.Ю.Умарова Изучение требований потребителей при проектировании адаптационной одежды для людей с ограниченными возможностями Journal os Advanced Scientific Research (ISSN:0976-9595) Vol.5.Issue 10 page 31 Impact factor 9.
4. K.B.Mirziyodova, M.K.Rasulova, M.Y.Umarova “Design issues of adaptive garments for women with disabilities” CAHIERS MAGELLANES-NS Volume 06 Issue 2 2024.

